

## YAYLOV YERLARIDAN SAMARALARI FOYDALANISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

**Xudoyberdiyev Feruz Shamshodovich**

“Yer resurslaridan foydalanish va davlat kadastrlari” kafedrasi dotsenti, texnika  
fanlari falsafa doktori xudoyberdiyev89@list.ru

**Nazarov Ibrohim Hasan o'g'li**

“Yer kadastrovi va yerdan foydalanish” talabasi

**Mirzomurotov Maksudjon Farxod o'g'li**

“Yer kadastrovi va yerdan foydalanish” talabasi

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti”  
Milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yaylov yerlaridan oqilona va samarali foydalanish, ushbu tizimida mavjud bo'lgan muammo va kamchiliklarni hal etish yo'llari masalasiga alohida to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** yer hisobi, yaylov yerlari, kadastr agentligi, yaylovdan foydalanuvchilar, o'simliklarning turi, geobotanik tadqiqotlar.

**Аннотация:** В данной статье особое внимание уделено вопросу рационального и эффективного использования пастбищных угодий, путей решения имеющихся в данной системе проблем и недостатков.

**Ключевые слова:** земельный учет, пастбищные угодья, кадастровое агентство, пользователи пастбищ, тип растительности, геоботанические исследования.

**Abstract:** In this article, special attention is paid to the issue of rational and effective use of pasture lands, ways to solve the existing problems and shortcomings in this system.

**Key words:** land accounting, pasture lands, cadastral agency, pasture users, vegetation type, geobotanical studies.

Bugungi kunda Respublikamizda qishloq xo'jaligi jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Qishloq xo'jaligi mahsulotlariga ehtiyoj kun sayin ortib borayotganligi bois qishloq xo'jaligini yangi bosqichga olib chiqish va ushbu sohaga innovatsion texnologiyalarni kelb jalgan qilish zamon talabi bo'lib qolmoqda. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib beruvchi korxonlarning moddiy texnika ba'zasi davlat byudjeti tomonidan to'ldirilib borilmoqda. Yangidan yangi qishloq xo'jaligi texniklari ishlab chiqarilmoqda. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining salmog'i mamlakat iqtisodiyotining ustunlaridan biri ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, qishloq xo'jaligi yerlaridan oqilona va samarali foydalanish tizimini yanada rivojlantirish eng dolzarb masaladir. Bugungi kunda qishloq xo'jaligi yerlarining unumdorligini oshirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Respublikamizda qishloq xo'jaligi tizimi rivojlanishda davom etmoqda,

ammo, xalq xo'jaligiga yog', sut, go'sht va jun kabi ko'plab mahsulotlarni yetkazib berishda muhim sanalgan yaylov yerlarining bugungi holati qanday. Yaylov yerlaridan foydalanishni yanada rivojlantirish nimasi bilan dolzarb masalaga aylanmoqda. Chorvachilik tarmog'i uchun o'ta muhim sanalgan yaylovlar va pichanzorlarning bugungi ahvoli qay darajada.

So'nggi yillarda respublikamizda yerlardan oqilona va samarali foydalanishni tashkil etish, yer munosabatlarini tartibga solish, yerlardan foydalanishda davlat nazoratini kuchaytirish borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bugungi kunda mamlakatimizda mavjud bo'lgan 21 mln hektar yaylov va pichanzorlardan samarali foydalanish, o'simliklarning turi va sonini ko'paytirish, hosildorligini oshirish, chorva mollarini tartibli almashlab boqishni yo'lga qo'yish, yaylov va pichanzorlar degradatsiyasining oldini olish maqsadida geobotanik tadqiqotlarni o'tkazish yuzasidan tadbirlar umuman nazoratdan chetda qolib ketgan. Natijada so'nggi 25-30 yilda yaylov va pichanzorlarning 35-40 foizi degradatsiyaga uchragan, o'simliklar turi va soni 20 foizga kamayib, hosildorlik 1,5-2 barobarga tushib ketgan. Bu kabi ma'lumotlar yaylov yerlaridan foydalanish tizimida ko'plab muammolar borligini bizga ko'rsatib bermoqda. Yaylov yerlaridan foydalanishda yangicha innovatsion texnologiyalarni keng jalg qilish esa eng muhim masalalardan biridir.

Respublika hududining katta qismini pichanzor va yaylovlар tashkil qiladi. Bu yerlar chorvachilikni rivojlantirish uchun asosiy ozuqa bazasi bo'lib hisoblanadi. 2022 yil 1 yanvar holatiga respublikada umumiylar maydoni 21118 ming hektar tabiiy pichanzor va yaylovlар mavjud bo'lib, shu jumladan, suv bilan ta'minlangan yaylovlarning umumiylar maydoni 18811,3 ming hektarni tashkil qiladi. Tabiiy sharoitlariga qarab, yaylov va pichanzorlar cho'l-tekislik (cho'l mintaqasi), tekislik-tepalik (adir mintaqasi) va tog'oldi hududlari (tog' mintaqasi) ga bo'linadi. Cho'l-tekislikdagi pichanzor va yaylov yerlar respublikaning shimoliy-g'arbiy qismida, dengiz sathidan 500 m. gacha balandlikda joylashgan. Ular yil davomida foydalaniladigan pichanzor va yaylovlardan iborat bo'lib, asosan, qorako'lchilikka ixtisoslashgan zonalarda joylashgan. Sharqda cho'l-tekislik pichanzor va yaylovlар asta-sekin tekislik-tepalik pichanzor hamda yaylovlarga o'tib, dengiz sathiga nisbatan 1000-1200 m. balandlikda joylashgan. Adir mintaqasining pichanzor va yaylovlari, asosan, kuzgibahorgi pichanzor va yaylovlarni tashkil etadi. Tog' mintaqasidagi tog'oldi-tog' pichanzor va yaylovlari g'arbiy Tyan-shan tizmalarida joylashgan bo'lib, dengiz sathidan 2500 m. balandlikda joylashgan. Tog' mintaqasi pichanzor va yaylovlari yozgi hisoblanib, barcha turdag'i hayvonlarni boqishga yaroqli hisoblanadi.

Davlatimiz va hukumatimiz tomonidan yaylov yerlaridan foydalanish tizimida ko'plab normativ huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Parlament tomonidan 2019 yil 20-may kunida O'zbekiston Respublikasining "Yaylov to'g'rida"gi Qonun qabul qilindi. Ushbu normativ huquqiy hujjat yaylov yerlaridan oqilona va samarali foydalanish tizimida ko'plab muammo va kamchililarga barham berdi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ushbu hujjat shuni bilan muhim ediki mamlatimiz yer foniining asosiy maydonini tashkil etgan yaylov yerlarini rivojlantirish uchun eng muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu qonunga asosan yaylovlar chorva mollari uchun ozuqa bo'lган о'simliklarning tabiiy qoplamiga ega yerlar.

Yaylovlar umummiliy boylik bo'lib, davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Yaylovlar cho'ldagi, yarim cho'ldagi, tog' oldidagi, tog'dagi va tekislikdagi, suv bilan ta'minlangan hamda suv bilan ta'minlanmagan yaylovlarga ajratiladi. Tog'dagi yaylovlar mavsumiy bo'lib, ulardan yilning faqat muayyan vaqtida foydalaniladi. Bundan tashqari ushbu qonunga asosan yaylov yerlaridan foydalanish huquqi tizmida ham ko'plab islohotlar amalga oshirildi. Jumladan Yuridik va jismoniy shaxslar yer uchastkalarini doimiy egalik qilishga, ijaraga, shu jumladan ikkilamchi ijaraga, shuningdek vaqtincha foydalanishga olish yo'li bilan yaylovlardan foydalanishi mumkin. Yaylovlar doimiy egalik qilishga, ijaraga va vaqtincha foydalanishga mahalliy davlat hokimiyati organlarining qaroriga ko'ra berilishi mumkin. O'rmon fondi yerlarida yaylovlardan davlat o'rmon xo'jaligi organlarining ruxsatnomasi bo'yicha foydalaniladi. Tanazzulga uchragan yaylovlarni takror ko'paytirish va tiklash, O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan kamyo hamda yo'qolib ketayotgan o'simlik va hayvonlar turlarini muhofaza qilish maqsadida maxsus vakolatli davlat organlari tomonidan yaylovlardan foydalanishga cheklovlar hamda taqiqlar belgilanadi. Chorva mollarini o'tlatish va pichan o'rish yaylovlarning turiga, shuningdek yayloving muayyan uchastkasida o'tlatiladigan chorva mollarining turi va soniga qarab tasdiqlanadigan yaylovlardan foydalanish normalari hamda muddatlariga rioya etgan holda amalga oshiriladi. Yaylovlardan foydalanish normalari va muddatlari yaylovlarni inventarizatsiyadan o'tkazish hamda geobotanik jihatdan tekshirish materiallari asosida belgilanadi.

"Yaylov tog'risida"gi qonun qabul qilinganligiga ko'p vaqt bo'lmasdan hukumat tomonidan ham yangi normativ huquqiy hujjat qabul qilindi. 2019-yil 19-avgustda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan "Yaylovlarda chorva mollarini o'tlatishda eng ko'p yo'l qo'yiladigan foydalanish normalarini belgilash, yaylovlar almashinishini ta'minlash va yuritish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" gi 689-sون qaror qabul qilindi. Ushbu qaror ham yaylov yerlaridan samarali foydalanish tizimida yangi huquqiy asos bo'lib xizmat qildi. Ushbu qarorga asosan Yaylovlardan quyidagi maqsadlarda: chorva mollarini o'tlatish, pichan o'rish, dorivor o'simliklarni yig'ish, yaylovlarni qayta tiklash maqsadida urug' yig'ish, yaylov o'simliklarini ekish, yaylov infratuzilmasini yaratish maqsadida foydalaniladi. Ushbu qarorga asosan yaylovlar infratuzilmasi degan tushuncha huquqiy asos yaratildi. Yaylovlar infratuzilmasi yaylov chorvachilida foydalaniladigan sug'orish inshootlari (chorva mollarini va yaylovlarni sug'orish uchun jihozzangan va ishlataladigan chashmalar, quduqlar, boshqa sug'orish punktlari, nasos stansiyalari, kanallar), suv o'tkazgichlar, chorva mollari o'tadigan joylar, yo'llar, qo'ralar, sun'iy urug'lantirish

punktlari, chorva mollarini o'tlatish uchun o'rab olingen hududlar, sug'orish va dam olish joylari, cho'ponlar vaqtincha yashaydigan joylar, shuningdek, boshqa ko'chmas mulk obyektlari hisoblanadi. Bundan tashqari yayovlardan quyidagi maqsadlarda foydalanish mumkin:chorva mollarini o'tlatish, pichan o'rish, dorivor o'simliklarni yig'ish, yayovlarni qayta tiklash maqsadida urug' yig'ish, yaylov o'simliklarini ekish, yaylov infratuzilmasini yaratish va boshqa maqsadlarda berilishi mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi qonuni "Yaylovlar to'g'risida"gi 2019 yil 20-may. O'RQ-538-son
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan "Yayovlarda chorva mollarini o'tlatishda eng ko'p yo'l qo'yiladigan foydalanish normalarini belgilash, yayovlar almashinishini ta'minlash va yuritish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" gi qarori 2019-yil 19-avgust.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining qarori "Ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o'tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018-yil 23-aprel, 299-son
4. Худойбердиев, Ф. Ш. (2019). Научная статья «Улучшение пастбищ, создание новых пастбищ и разработка эффективных методов использования пастбищ». Вестник Хорезмской Академии Мамуна, 17-20.
5. Худойбердиев, Ф. Ш., Шарипова, Ф. К., Бобоев, С. У., & Мухамадов, К. М. (2014). РАЗРАБОТКА ЭФФЕКТИВНЫХ МЕТОДОВ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПАСТБИЩНЫХ ЗЕМЕЛЬ. The Way of Science, 69.
6. Shamshodovich, K. F., Utkirovich, B. S., & Mukhtorovich, M. K. (2021, May). Innovative approach to rational use of pastures and increasing productivity. In "ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 76-78).
7. Shamshodovich, K. F., Akhtamov, S., Muhammadov, K., & Bobojonov, S. (2021). THE IMPORTANCE OF THE CLUSTER SYSTEM TODAY. International Engineering Journal For Research & Development, 6, 3-3.
8. Худойбердиев, Ф. Ш. (2020). Зарубежный опыт в области пастбищных территорий, возможности и условия их использования в Узбекистане. Землеустройство, кадастр и мониторинг земель, (10), 24-27.
9. Xudoyberdiyev, F. S. (2020). TAKRORIY EKIN-QO 'SHIMCHA DAROMAD. Студенческий вестник, (24-6), 47-48.
10. Sh, F. (2019). Khudojberdiyev. Development of methods of pasture improvement, creation of new pastures and effective use of pastures. Bulletin of the Khorezm Academy of Sciences, 2-15.

11. Shamshodovich, K. F., Utkirovich, B. S., & Mukhtorovich, M. K. (2021, June). THE IMPORTANCE OF PASTURE LANDS IN THE DEVELOPMENT OF THE LIVESTOCK SECTOR IN UZBEKISTAN. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 164-166).
12. Худойбердиев Ф. Ш. Меры предотвращения деградации пастбищных земель //Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве. – 2020. – С. 331-333.
13. Xudoyberdiyev, F. S. (2020). BUXORO VILOYATIDA YAYLOVLARDAN FOYDALANISHNING BUGUNGI HOLATI. Студенческий вестник, (24-6), 45-46.
14. Худойбердиев, Ф. Ш. (2019). Яйловларни яхшилаш, янги яйлов барпо этиш ва яйловлардан самарали фойдаланиш усулларини ишлаб чиқиш” мавзусидаги илмий мақола. Хоразм маъмун академияси ахборотномаси, 17-20.
15. Khudoyberdiev, F. S., Sharipova, F. K., Bobozhonov, S. U., & Mukhamadov, K. M. (2014). Development of effective methods of pasture land use. The Way of Science, 70.
16. Shamshodovich, K. F., Suxrobon, A., Qamoriddin, M., & Saidjon, B. (2021). Protection of Land Resources and Wise Use. Eurasian Journal of Academic Research, 1(04).
17. Shamshodovich, K. F., Muhammadov, K., & Bobojonov, S. (2021). GPS SPUTNIK SYSTEM. Journal of Ethics and Diversity in International Communication, 1(1), 33–34. Retrieved from
18. Shamshodovich, K. F., Utkirovich, B. S., & Mukhtorovich, M. K. (2021, May). ACHIEVING EFFECTIVE RESULTS THROUGH PASTURE MANAGEMENT. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 72-75).
19. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
20. [www.senat.uz](http://www.senat.uz)